

BOJXONA TIZIMIDA TRANSPORT LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Kucharov Abror Sabirjanovich

TDIU Biznesni boshqaruv kafedrası professori,
i.f.d., prof.

E-mail: abrork1967@gmail.com

Alijanova Komila Toxir kizi

Bojxona qo‘mitasi xalqaro boshqarmasi bosh inspektori,
b/x katta leytenanti

E-mail: kamilianalijanova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada bojxona tizimida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishning dolzarb jihatlari, zamonaviy texnologiyalar, xususan, elektron plombalarning qo‘llanilishi orqali yuk tashish jarayonlarining xavfsizligi va tezkorligini ta‘minlash masalalari yoritilgan. Jahon tajribasi asosida logistika samaradorligini oshirish, bojxona organlarining boshqa davlat idoralari bilan integratsiyasini kuchaytirish, raqamlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish zarurati asoslab berilgan. O‘zbekiston misolida tashqi savdo yuklarining statistik tahlili keltirilib, avtomobil transportining o‘shish tendensiyasi va bojxona jarayonlarini soddalashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Maqola oxirida soha rivojiga oid taklif va xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bojxona logistikasi, transport-logistika tizimi, elektron plomba, xalqaro savdo, yuk tashish, tranzit, raqamlashtirish, bojxona nazorati, logistika infratuzilmasi, integratsiya.\

Аннотация

В статье рассматриваются актуальные вопросы развития транспортно-логистической инфраструктуры в системе таможенных органов, а также вопросы обеспечения безопасности и оперативности грузоперевозок посредством внедрения современных технологий, в частности, электронных пломб. На основе международного опыта обоснована необходимость повышения эффективности логистики, усиления интеграции таможенных органов с другими государственными структурами и внедрения цифровых систем мониторинга. Приведен статистический анализ внешнеторговых грузов в Узбекистане, отражена тенденция роста автомобильных перевозок и упрощения таможенных процедур. В конце статьи изложены предложения и выводы по развитию отрасли.

Ключевые слова: таможенная логистика, транспортно-логистическая система, электронная пломба, международная торговля, грузоперевозки, транзит, цифровизация, таможенный контроль, логистическая инфраструктура, интеграция.

Abstract

This article examines the pressing issues of developing transport and logistics infrastructure within the customs system, particularly focusing on ensuring the safety and efficiency of cargo transportation through the use of modern technologies such as electronic seals. Based on international experience, the need to enhance logistics efficiency, strengthen integration between customs and other government agencies, and implement digital monitoring systems is substantiated. The statistical analysis of Uzbekistan's foreign trade cargo movement highlights the growth trend in road transportation and the simplification of customs procedures. The article concludes with practical recommendations for sectoral development.

Keywords: customs logistics, transport-logistics system, electronic seal, international trade, cargo transportation, transit, digitalization, customs control, logistics infrastructure, integration.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi jahon bozoriga shiddat bilan chiqib borayotgan, tashqi iqtisodiy aloqalari mustahkamlanayotgan bugungi kunda xalqaro savdoni soddalashtirish, unga ko'maklashishda bojxona logistikasini rivojlantirish mamlakatimiz bojxona xizmatining dolzarb vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va tashqi savdoni liberallashtirish bo'yicha izchil siyosat bojxona tizimi oldiga yangi ustuvor vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, xalqaro savdo ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish, bojxona rasmiylashtiruv va nazorat jarayonlarini soddalashtirish hamda raqamlashtirish orqali ularning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur magistrlik dissertatsiyasida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyati doirasida tovar yetkazib berish zanjirini innovatsion asosda tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy mexanizmlari ilmiy tarafdin ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Logistikaga oid bir qancha kitoblar muallifi B.A.Anikin logistikaga quyidagicha tarif beradi: "logistika-xom ashyo va axborot resurslarini birinchi qo'ldan oxirgi iste'molchigacha yetgunga qadar harakatini rejalashtirish, tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish haqidagi fan.

Logistikani rivojlantirishda unga ta'sir etuvchi omillar haqida Q.Dadabayev tomonidan quyidagi fikrlar bayon qilingan: "Logistikaning rivojlanishi birinchi navbatda tovar harakati bilan bog'liq bo'lgan vaqt va pul xarajatlarini kamaytirishga intilish bilan bog'liq"¹.

Rossiyalik bir qator iqtisodchi olimlari A.Chernish va Yu.Gupanova tomonidan "Logistikaning asosiy maqsadi tovarni kelishilgan miqdorda va sifatda aniq vaqtda; ishlab chiqarish, qadoqlash, saqlash, tarqatish, transportda tashish, shuningdek qabul qilish, qayta ishlash hamda ma'lumot uzatishda eng kam xarajatlar orqali iste'molchiga yetkazishdan iborat

Baramzin S.V. Bojxona logistikasi – bojxona texnologiyalaridan oqilona foydalanishusullari yig'indisi

¹ Q.A.Dadaboyev. "Xalqaro logistika". O'quv qo'llanma, Toshkent – 2019, 12- bet, 231 bet

Albekov A.U., Gamidullayev S.N., Parfenov A.V. Bojxona logistikasi – bir tarafdin qo‘shni davlatlar bojxona chegaralari orqali tovarlar harakatini optimallashtirish uchun TIF qatnashchilari tomonidan foydalaniladigan usul va vositalar yig‘indisi bo‘lsa, boshqa tarafdin bojxona tizimida turli jarayonlarni boshqarish metodologiyasi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasida neft-gaz korxonalarini infratuzilmalarini boshqarishni takomillashtirishni, ularni yangi texnologiyalarni olib kirish va modernizatsiyalash orqali yuqori qiymatli tayyor mahsulot olishni o‘rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishning mushohada, induksiya va deduksiya dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik analiz va sintez, statistik guruhlash, monografik tadqiqot etish, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat organlari uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, biznes vakillari oddiy va tushunarli bojxona tartib-taomillariga, soddalashtirilgan bojxona nazorati jarayonlariga hamda asossiz moliyaviy xarajatlarning yo‘qligiga muhtoj. Bojxona tartibotlarini optimallashtirish ma‘lum darajada zamonaviy elektron texnologiyalarni joriy etish, qog‘oz ish oqimini cheklash va barcha jarayonlarni maksimal raqamlashtirish bilan bog‘liq. Elektron plombalardan foydalangan holda xalqaro yuk tashishni bojxona maqsadlarida kuzatish mexanizmining yaratilishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Elektron plomba – navigatsiya, sun‘iy yo‘ldosh tizimi texnologiyalari asosida jihozlangan qurilma bo‘lib, uning ishlashini va tovarlarni tashish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni nazorat qiluvchi operatorning axborot tizimiga uzatishni ta‘minlaydigan plombalash elementi va elektron modulni o‘z ichiga oladi. Yuklarni tashish to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar bojxona organlari axborot tizimlarida qayd etib boriladi. Qulflash kabelining ruxsatsiz uzilishi, aloqa liniyalaridagi muammolar, batareya zaryadsizlanishi holatlarida plomba ushbu hodisani qayd etadi va milliy operatorga ogohlantirish signalini yuboradi.

Elektron plombalardan foydalanish afzalliklari:

1. O‘rnatilgan elektron plombalar bilan avtotransport vositalarini jismoniy kuzatuvni qisqartirilib, ushbu jarayon masofadan turgan holda amalga oshiriladi;
2. Yo‘nalish bo‘ylab harakatlanayotgan avtotransport vositalarining joylashgan koordinatalari, joylashgan joyi bo‘yicha ma‘lumot onlayn rejimda olinadi;
3. Elektron plomba o‘rnatilgan avtotransport vositasi haydovchilari nazoratda ekanliklari sababli belgilangan manzillarga tovarlarni qisqa vaqt ichida yetkazib berishga harakat qiladi;
4. Bojxona organlarining xarajatlari minimallashtiriladi.

Elektron plombalar yuqori xavfli yoki xavf darajasi yuqori tovarlarning alohida toifalarini kuzatish uchun qo‘shimcha nazorat vositasi sifatida ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Yuqori texnologik o'zgarishlar, xalqaro savdoning globallashuvi, shuningdek, global qiymat zanjirlarining o'zaro bog'liqligi yuklarni tashishda xavfsizlikni ta'minlovchi qurilmalarning rivojlanishiga olib keldi. Ayrim davlatlar bojxona ma'muriyatlari hamda manfaatdor tomonlar turli xil elektron plombalarni qo'llash orqali yuk xavfsizligini ta'minlashning yangi vositalarini qo'llab kelmoqda.

Elektron plombalar standart plombalarning mexanik xavfsizligini elektron xavfsizlik bilan birlashtiradi. Elektron plombalarda noyob ID kodi mavjud bo'lib, u foydalanuvchi xotirasini o'qish va yozish qobiliyatiga ega. ID kod plombaga ma'lumotlarni saqlash va real vaqt rejimida aloqa va axborotlarni taqdim etish imkoniyatini beradi¹

Elektron plombalarda axborot uzatish avtomatik amalga oshadi va ma'lumotlarni onlayn so'rov orqali olish imkoniyati mavjud. Real vaqt rejimida plombaning yaroqli holda ekanligi kuzatib boriladi. Agar plombaga zarar yetkazishga harakat qilinsa plomba tizimga ogohlantirish signalini yuboradi va zarar yetkazilgan vaqt va joy tizimda avtomatik qayd etiladi. Ayrim plombalar GPS tizimi va sensorli ekran sozlamalariga ega, ba'zilar esa voqealar sodir bo'lganda sensor ekranidagi kamera yordamida plombaga zarar yetkazishga urinayotgan shaxsni suratga tushirishi yoki videoga olishi mumkin.

Elektron plombalar faqat maxsus yuqori himoyalangan elektron kalitlar bilangina ochiladi. Ular plombani buzishga urinishlar va ularning qayerda sodir bo'lganligi haqidagi axborotlarni sun'iy yo'ldosh yoki uyali aloqa tarmoqlari yordamida GPS tizimi orqali bojxona organlariga yuboradi.

Elektron plombalardan foydalanish holatini jahon tajribasi o'rganilganda, Hindiston 2019-yilda Jahon Bankning "Doing Business-2019" hisobotida o'z reytingini yaxshilagan kuchli 10 ta davlat qatoriga kirgan edi. Bunga asosiy ta'sir sifatida Hindiston "Chegaralararo savdo" toifasidagi reytingining 149-o'ringandan 80-o'ringa ko'tarilganligi deb baholangan.² Ushbu toifadagi bunday o'sishga bojxona chegaralarida elektron plombalardan foydalanishning joriy etilganligi sabab bo'lgan. Ekspertlarning ta'kidlashicha, Hindiston eksport hajmining yildan yilga o'sishi eksport rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish zaruratini keltirib chiqargan. Tovar aylanmasining o'sib borishi bojxona nazorati mexanizmlarini ham soddalashtirish zarurligini ko'rsatdi. Hindiston hukumati bunga yechim sifatida mexanik plombalarni elektron bojxona plombalariga almashtirdilar. Bu davlatga firibgarlik va xavfsizlik tahdidlarini kamaytirishga, shu bilan birga tashish xarajatlarining va vaqtning qisqarishiga, yuklar harakatining tezlashishiga olib keldi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, 2019-yilda Hindistonning eksport hajmi 323 milliard AQSH dollarini, 2023-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 431 milliard AQSH dollarini tashkil etgan.³

Shu bilan birga, elektron plombalardan foydalanish tadbirkorlarni bojxona hamkorligida kuzatish bilan bog'liq xarajatlardan ozod qiladi. Hozirda amaldagi

¹ Klilichov N. Bojxona nazorati protseduralarini soddalashtirishda elektron plombalarning ahamiyati. Образование наука и инновационные идеи в мире Часть-6. yanvar 2025 . 233 bet

² Improving facilitation through the use of electronic seals/Article/ URL: <https://mag.wcoomd.org/magazine/wco-news-89/improving-facilitation-through-the-use-of-electronic-seals/>

³ URL: www.trademap.org/ (murojaat sanasi: 15.01.2025)

qonunchilikka ko‘ra bitta transport vositasini bojxona hamkorligida kuzatish ikki yuz kilometrgacha masofaga qadar bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari, ikki yuz kilometrdan ortiq masofaga besh baravari miqdorida belgilangan¹. Bu esa mos ravishda 750 ming va 1 mln 875 ming so‘m hisoblanadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra elektron plombalarning bir kunlik ijarasi o‘rtacha 25 AQSH dollarini tashkil etmoqda. Bojxona hamrohligida kuzatishni Qirg‘iziston-Turkmaniston yo‘nalishida harakatlanayotgan transport vositasi misolida ko‘rib chiqsak, “Do‘stlik” chegara bojxona postidan “Olot” chegara bojxona postiga yetib borishi uchun o‘rtacha 3-4 kun vaqt sarflanadi. Bunga kuzatuvning kunning faqat yorug‘ qismida amalga oshirilishi², qabul qilish-topshirish punktlaridagi rasmiyatchiliklarga ortiqcha vaqt sarflanishi kabi masalalar sabab bo‘ladi. Agar ushbu transport vositasi elektron plomba bilan onlayn kuzatuv ostida, yuqorida keltirilgan to‘xtalishlarsiz harakatlansa, 1,5-2 sutka ichida manzil postiga yetib borishi mumkin. Bundan tashqari, elektron plomba ijarasining ikki kunlik to‘lov summasi 50 AQSh dollar (taxminan 650 000 so‘m) bo‘lib, tadbirkor xarajatlari 2,8 baravarga kamayadi.

Hozirgi vaqtda elektron plombalarni yaratish va foydalanishning xalqaro standartlari mavjud emas. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining ISO 18185 standarti yuk konteynerlariga elektron muhrlar qo‘yishning umumiy tartib qoidalarini belgilaydi. Shuningdek ushbu standartda turli masofalarda ishlovchi elektron plombalarda mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan minimal ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan.

O‘zbekiston bojxona tizimida elektron plombalarning joriy etilishi mamlakatning logistika infratuzilmasini zamonaviylashtirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Ushbu texnologiya yordamida yuk tashish jarayonlarining xavfsizligi, tezligi va shaffofligi oshadi, bu esa biznes vakillari va xalqaro savdo hamkorlari uchun yanada qulay muhit yaratadi. Kelgusida bu kabi innovatsion yondashuvlar iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro savdo oqimini kengaytirish va mamlakat bojxona tizimini global tendensiyalarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, elektron plombalar nafaqat bojxona nazorati, balki mamlakatning logistika tizimlari va iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan texnologiya sifatida qaraladi. Shu bois, ushbu tizimni kengroq miqyosda qo‘llash va yanada takomillashtirish istiqboldagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonning transport tarmoqlari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish borasidagi xalqaro hamkorligi tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, mamlakatimiz tomonidan transport va tranzit masalalariga doir 100 dan ortiq xalqaro kelishuvlar va bayonlar, shu jumladan, 30 ga yaqin Konvensiyalar imzolandi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Xalqaro temir yo‘llari ittifoqi, Temir yo‘llari hamkorlik tashkiloti, Xalqaro ekspeditorlar uyushmasi federatsiyasi, ESKATO, TRASEKA va boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar a‘zosi hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.11.2020-yildagi 700-sonli qarori 1-ilova, 5-band.
<https://lex.uz/docs/-5087206>

² Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 800-son qarori 1-ilovasining 16-bandi <https://lex.uz/docs/-5179291>.

Bugungi kunda mamlakatimizda transport logistikasini rivojlantirishga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

Qayd etib o‘tish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalarida mamlakat transport-logistika sohasini rivojlantirish bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilangan.

bojxona organlari tomonidan tashqi savdo yuklarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi amalga oshirilishini inobatga olib, respublika hududi bo‘ylab tashqi savdo yuklarini tashigan transport vositalari tahlili amalga oshirildi. Jumladan, bugungi kunda respublika hududi bo‘ylab tashilgan tashqi savdo yuklari hajmi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakat hududi orqali 2020-2024-yillar davomida temir yo‘l va avtomobil transportida jami 124 584,3 ming tn. tashqi savdo yuklari tashilgan bo‘lib, bunda temir yo‘l transportining ulushi 104 098,9 ming tn.ni yoki 83,6 % ni, avtomobil transportida esa 20 485,4 ming tn.ni yoki 16,4 % ni tashkil etmoqda (1-jadval).

1-jadval

2021-2024-yillarda temir yo‘l transportida tashilgan tashqi savdo yuklar hajmi

T/R	Yillar	Tashilgan yuk hajmi, ming tn.	2016-yilga nisbatan farqi	
			ming tn, +/-	%
1	2021 y	22 294,4	0,0	0,0
2	2022 y	23 884,5	1 590,1	7,1
3	2023 y	28 607,1	6 312,7	28,3
4	2024 y	29 312,9	7 018,5	31,5
5	Jami	104 098,9		

Manba: Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Temir yo‘l transportida tashilgan tashqi savdo yuklari harakat yo‘nalishlari (*eksport, import, tranzit*) bo‘yicha hajmi quyidagicha (2-jadval):

2-jadval

Temir yo‘l transportida tashilgan tashqi savdo yuklari harakat yo‘nalishlari kesimida (ming.tn)

T/R	Yillar	Eksport	Import	Tranzit	Jami
1	2021 y	3 108,3	11 392,4	7 793,7	22 294,4
2	2022 y	3 972,7	12 799,8	7 112,0	23 884,5
3	2023 y	3 742,3	17 817,5	7 047,3	28 607,1
4	2024 y	3 712,6	18 709,9	6 890,4	29 312,9
5	Jami	14 535,9	60 719,6	28 843,4	104 098,9

Manba: Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi jadvaldan 2024-yil davomida:

- “eksport” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 3 712,6 ming tn.ni tashkil qilib,

2016-yilga nisbatan 604,3 ming tn.ga yoki 19,4 % ga oshganligini;


- “import” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 18 709,9 ming tn.ni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 7 317,5 ming tn.ga yoki 64,2 % ga oshganligini;

- “tranzit” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 6 890,4 ming tn.ni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 903,3 ming tn.ga yoki 11,6 % ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida, 2023-2024 yillar davomida respublikaga olib kirilgan yuk tashish uchun mo‘ljallangan transport vositalari, barcha tipdagi yuk konteynerlari, lokomotivlar, temir yo‘l vagonlari va butlovchilar uchun 13,2 trln.so‘m miqdorida bojxona to‘lovlaridan imtiyozlar berilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2023-2024-yillar davomida temir yo‘l transportida tashilgan tashqi savdo yuklari hajmi (104 098,9 ming tn) avtomobil transportida tashilgan tashqi savdo yuklari hajmidan (20 485,4 ming tn) sezilarli darajada (5,1 barobar) ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, avtomobil transportining tashqi savdo yuklarini tashishdagi o‘sib borish tendensiyasi temir yo‘l transportiga qaraganda yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda (1-rasm).

Misol uchun, 2024-yilda avtomobil transportida tashilgan tashqi savdo yuklari hajmi 2018-yilga nisbatan 2,9 barobar oshgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich temir yo‘l transportida 1,3 barobarni (deyarli 2,2 barobar kam) tashkil etadi.



1-rasm. 2021-2024-yillar davomida temir yo‘l va avtomobil transportida tashilgan tashqi savdo yuklari hajmi ¹

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda mamlakatdan eksport-import qilingan yuklar hajmida o‘sish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lsada, mamlakat hududi bo‘ylab harakatlanayotgan tranzit yuklar ulushi kamayib borayotganligi kuzatilmoqda.

Zamonaviy transport-logistika tizimlari global savdo oqimlarining samarali boshqarilishi, tranzit salohiyatining to‘liq ishga solinishi hamda bojxona

¹ Muallif ishlanmasi

jarayonlarining raqamlashtirilgan va tezkor bo'lishini taqozo etmoqda. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonning logistika va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, mamlakatning xalqaro savdodagi ishtirokini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Raqamli bojxona tizimlari eksport jarayonlarida ma'muriy yukni kamaytirish, hujjatlarni avtomatlashtirish va real vaqt rejimida ma'lumotlar almashishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bojxona logistikasining asosiy maqsadi — xalqaro savdo ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida tovar va transport vositalarining bojxona chegarasi orqali erkin, xavfsiz va samarali harakatlanishini ta'minlash, bu jarayon bilan bog'liq protseduralarni soddalashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va eng asosiysi, vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish esa faqatgina bojxona organlarining faoliyati bilan emas, balki ular tomonidan boshqa tegishli davlat idoralari bilan yaqin hamkorlikda olib borilayotgan muvofiqlashtirilgan siyosat va islohotlar natijasida amalga oshirilishi mumkin.

Uzluksiz tranzit tizimini joriy etish transport jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Elektron hujjat aylanishi esa bojxona va boshqa nazorat organlari o'rtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlaydi. Davlat nazorati natijalarini o'zaro tan olish ortiqcha hujjat tekshiruvlarini kamaytiradi va byurokratik to'siqlarni bartaraf etadi. Tashuvchi davlatlar o'rtasida hujjatlarni tan olish esa xalqaro tashuvlarda huquqiy yagona yondashuvni shakllantiradi.

Tranzit jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida nazoratni bojxona organlari tomonidan amalga oshirishga oid normativ hujjatlarga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi lozim. Ushbu huquqiy asoslar yangilangach, Transport vazirligi tomonidan nazoratni amalga oshirish uchun bojxona axborot tizimlarida tegishli texnik imkoniyatlar yaratilishi kerak. Xorijiy davlatlar bilan tuzilgan kelishuvlar asosida ruxsatnomalar to'liq elektron shaklga o'tkazilishi amaliyotga joriy etilishi zarur. Tranzit deklaratsiyalarini taqdim etishda ularning avval Transport vazirligi axborot tizimi orqali nazoratdan o'tishi, so'ngra E-tranzit AAT tizimida ro'yxatga olinishi tartibi yo'lga qo'yilishi lozim.

Elektron plombalar qo'llanilishi natijasida avtotransport vositalarini jismoniy kuzatishga ehtiyoj kamayib, bu jarayon masofadan turib amalga oshiriladi. Transport vositalarining harakat yo'nalishi, koordinatalari va joylashuvi haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida onlayn olinadi. Bu esa axborot tizimlariga tushadigan yuklamani kamaytiradi va tizimlar ishlash samaradorligini oshiradi. Nazorat ostida ekanligini bilgan haydovchilar tovarlarni belgilangan manzillarga qisqa vaqt ichida yetkazishga intiladi, natijada bojxona organlarining xarajatlari sezilarli darajada kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabr O‘RQ-654-son “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-5174753>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5582-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/4263329>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4545-son “Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori <https://lex.uz/docs/-4634768>
5. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi 277-son “Avtomobilida yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishning ruxsatnoma tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6524632>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-son “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://www.lex.uz/docs/-6721144>
7. J.R. Qulmuxamedov va bosh., “Logistika asoslari”. -Toshkent “Fan va texnologiya”, 2015, 5-bet.
8. Tairova M.M., Abdulloev A.J. “Logistika” O‘quv qo‘llanma Buxoro 2020. 14-bet
9. A.S.Dadaboyev. “Xalqaro logistika”. O‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2019, 12-bet, 231 bet
10. A.S.Kucharov Transport logistikasi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2025, 231 bet
11. Dr. Alvydas Jablonskis and others “Insights into the definition of customs logistics” intellectual economics 2018, No. 12(1)
12. Klilichov N. Bojxona nazorati protseduralarini soddalashtirishda elektron plombalarning ahamiyati. Образование наука и инновационные идеи в мире Часть-6. yanvar 2025
13. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona xizmati, Yillik hisobot, 2023.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**